DOI: https://10.5281/zenodo.17664726

KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA BIZNES ASOSLARI FANIDAN QO'LLANILAYOTGAN SIMULIATSION O'YINLARNING AHAMIYATI

Suloymonova Roza Abdukarimovna
Toshkent viloyat Olmaliq kon metallurgiya texnikum o'qituvchi
Email: rozasulajmanova2345@gmail.com

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda jahonda maqsadi professional ta'lim muassasalari o'qituvchilariga "Biznes asoslari" o'quv dasturini amaliyotga joriy etish va amalga oshirish jarayonida qo'llab–quvvatlashdir. Ushbu o'quv qo'llanma "Biznes asoslari" o'quv dasturi asosida va "Jamg'arma o'yini", "Mikro biznes o'yini" va "Biznesni rejalashtirish va kredit olish bo'yicha suhbatga tayyorgarlik ko'rish" o'quv modullari ketma–ketligi bir–biri bilan bog'langan. Shuningdek, qo'llanmada dars jarayonlarida o'rganish uchun qulay bo'lgan kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar va darsda o'quvchilar bilan muhokama tashkil etish orqali faollashtiruvchi mashqlarni qo'llash tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy ta'lim, biznes asoslari, Germaniya metodikasi, dual ta'lim, amaliy ta'lim, ta'lim innovatsiyalari, ta'lim texnologiyasi, pedagogika.

KIRISH

Ta'lim texnologiyasi tushunchasi ta'lim maqsadiga erishish quroli, ya'ni oldindan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish va shu maqsadga erishishning metod, usul va vositalari tizimini, ta'lim jarayonini boshqarishni ifodalaydi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari quyidagilardir: kafolatlangan yakuniy natija, ta'limning samaradorligi, qaytuvchan aloqaning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanganligi. O'yin texnologiyasi ham o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirish kerak bo'lgan jarayonlarning mantiqiy ketma- ketligi va o'zaro bog'liqligi, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farq qilad. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda biznes bilimlarini egallash har qanday kasb egalari uchun zarur bo'lib qolmoqda. Germaniyaning "Biznes asoslari"ni o'qitishdagi yondashuvi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy biznes qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Germaniya kasbiy ta'lim tizimi, ayniqsa dual ta'lim modeli

dunyoda eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. “Biznes asoslari” fanini o‘qitishda nemis metodikasi nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Bu maqolada Germaniya tajribasining O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi, metodik qo‘llanmalarning adaptatsiyasi va o‘quv jarayonini takomillashtirish yo‘llari tadqiq qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida kasbiy ta’limni isloh qilish jarayonida xalqaro tajribalardan foydalanish ayniqsa muhim.

ASOSIY QISIM

Kasbiy ta’lim tashkilotlarida biznes asoslari fanidan qo‘llanilayotgan simuliatsion o‘yinlarning ahamiyati.

Kasbiy ta’lim tashkilotlarida biznes asoslari fanidan qo‘llanilayotgani va buning uchun kasbiy ta’lim o‘qituvchilan maxsus fanlarni o‘qitish uslubiyatini, kasbiy-pedagogik mahorati va amaliy ko‘nikmalarini oshirib borishlari talab qilinadi. Hozirgi kunda jahon andozalariga moslashish ehtiyojidan kelib chiqqan holda kasbiy ta’lim o‘qituvchi — kadrlarning asosiy qismi zamonaviy texnika va texnologiyani chuqur bilishi hamda tahlil qila olishi, zamonaviylik yaratish darajasiga ega bo‘lishi juda muhim. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va faol ta’lim omillaridan foydalanish, zamonaviy ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq qilish, talabalarni ko‘proq mustaqil ishlashga undash, ilg‘or tajribalardan saboq berishning turli yo‘llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kasbiy ta’lim olayotgan talabalarning kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun maxsus fanlarni o‘qitishni samarali tashkil qilish, ushbu jarayonni zamonaviy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’minlash lozim. O‘quv majmuada kasbiy ta’limni metodologik asoslari va ilmiy tadqiqot metodlari ko‘rsatiladi. Kasb ta’limi tamoyillari va o‘qitishning turli metodlari batafsil keltiriladi. Kasbiy ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘tkazish va bilim, ko‘nikma hamda malakalarni baholash.

Professional ta‘lim tizimi o‘quvchilarini xorijiy tajribalar asosida moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan “German Sparkassenstiftung for International Cooperation” tashkiloti bilan hamkorlikda professional ta‘lim tizimi pedagog kadrlarini Germaniya metodikasi asosida tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur tajribalar asosida xalqaro ekspertlar bilan birgalikda professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan simulyatsion va kompetensiyaga asoslangan “Biznes asoslari” o‘quv dasturi ishlab chiqildi. Ushbu o‘quv dasturining maqsadi, o‘quvchilarga o‘z biznes-g‘oyasini amalga oshirish va shaxsiy daromadga ega bo‘lish hamda daromadlarini oshirish uchun o‘zining shaxsiy tadbirkorlik korxonasiga asos solishga o‘rgatishdan iborat. Simulyatorlardan foydalanishning asosiy sabablaridan biri ularning real ob‘ektlarga

nisbatan juda ham arzon alternativa ekanligidadir. Simulyatorlardan foydalanish jarayonida talabalar maʻruza vaqtida oʻrgangan bilimlarini virtual boʻlsada hayotga tadbiq qiladilar. Ushbu tadqiqotlar jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda nazariya hamda hayotiy tadbiqotlarning rivojlanishiga bevosita xissa qoʻshadilar. Bundan tashqari oʻsha simulyatorlarning ham yanada rivojlanishiga, yanada haqiqiy hayotiy tadqiqotlarga yaqin natijalar beradigan darajaga chiqarishda oʻz xissalarini qoʻshishlari mumkin. Bu oʻz oʻrnida talabalarni faqatgina "tinglovchi" vazifasida qolmasdan, bevosita ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashuvchilarga aylantiradi. Bu esa oʻz navbatida talabalarda oʻqish va tadqiqotlarga boʻlgan qiziqishlarini yanada ortishiga olib keladi.

"Biznes asoslari" oʻquv jarayonlari Germaniya tajribasidan kelib chiqib simulatsion oʻyinlar, Noy-hau sessiyalar, enerjayzerlar, amaliy mashqlar, ishtirokchilarning taqdimotlari va feedback kabi usullardan foydalanib tashkil etiladi, oʻquv jarayonlari davomida oʻquvchilar tomonidan oʻzlashtirilgan bilim va koʻnikmalar ichki nazorat boʻyicha amaldagi tartib asosida baholanishi belgilangan. Baholash usullari yozma, ogʻzaki, savol-javob, test, amaliy topshiriqlar, ishbilarmonlik-vaziyatli rolli oʻyinlarni bajarish orqali oʻquvchilarning oʻquv elementini oʻzlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi.

Taʻlim tizimi uchun ahamiyati "Biznes asoslari" fanini Germaniya uslubida oʻqitish talabalarga:

- Haqiqiy biznes muhitida qoʻllash mumkin boʻlgan koʻnikmalar beradi
- Tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi
- Iqtisodiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Ular yangi ish oʻrinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish va aholi daromadlarini koʻpaytirish orqali iqtisodiy tizimning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat tomonidan koʻplab qulay sharoitlar yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T:, Oʻzbekiston, 2017.
2. F.R.Qodirova, Sh.K.Tashpulatova. Bolalar bogʻchasida metodik ishlar – T.: Voris - 2012 kasb-hunar uchun darslik.
3. Rauner, F. (2012). "Dual Vocational Education and Training". Springer.

4. BIBB (2021). “Framework Curriculum for Business Basics in VET”. Germaniya.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2020). “Kasbiy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”.
6. UNESCO-UNEVOC (2019). “Germany’s Dual System: Best Practices”.